

To'raqulov Akbar Rustam o'g'li,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA IJTIMOIY AXLOQ TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY TALQINI

UDK: 37.371.57

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_1_7](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_1_7)

TO'RAQULOV A.R-O'. PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA IJTIMOIY AXLOQ TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY TALQINI

Mazkur maqola pedagogik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiy-axloqiy tushunchasining zamonaviy talqinini tahlil qiladi. Maqolada ijtimoiy-axloqiy rivojlanishning nazariy asoslari, kognitiv, hissiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi zamonaviy yondashuvlar (masalan, Piaget, Kohlberg, Erikson va Carol Gilliganning ishlari) ko'rib chiqilgan. Maqola, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy rivojlanishni pedagogik amaliyotda qo'llashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va samarali yondashuvlarni muhokama qiladi. Natijada, ta'lim tizimida axloqiy tarbiya va ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarga e'tibor qaratish shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Tayanch so'z va tushunchalar: axloq, ijtimoiy-axloqiy rivojlanish, pedagogik va psixologik adabiyot, axloqiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, hissiy rivojlanish, ijtimoiy axloqiy kompetensiya, ta'lim jarayoni, shaxsiy axloqiy mas'uliyat.

ТУРАКУЛОВ А.Р-У. СОВРЕМЕННАЯ ТРАКТОВКА ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ПРАВСТВЕННОСТИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

В данной статье анализируется современная трактовка понятия социальной нравственности в педагогической и психологической литературе. В статье рассматриваются теоретические основы социально-нравственного развития, взаимосвязь познавательных, эмоциональных и социальных процессов, а также современные подходы к формированию нравственных компетенций (например, работы Пиаже, Кольберга, Эриксона и Кэрл Гиллиган). В статье также обсуждаются трудности и эффективные подходы к применению социально-нравственного развития в педагогической практике. В результате в системе образования уделение внимания нравственному воспитанию и социально-нравственным компетенциям занимает важное место в обеспечении духовно-нравственного развития личности.

Ключевые слова и понятия: этика, социально-нравственное развитие, педагогическая и психологическая литература, нравственное развитие, познавательное развитие, эмоциональное развитие, социальная нравственная компетентность, образовательный процесс, личная моральная ответственность.

TURAKULOV A.R-U. MODERN INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF SOCIO MORALITY IN THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL LITERATURE

This article analyzes the modern interpretation of the socio-moral concept in the pedagogical and psychological literature. The article examines the theoretical foundations of socio-moral development, the interrelationships of cognitive, emotional and social processes, as well as modern approaches to the formation of moral competencies (e.g. the work of Piaget, Kohlberg, Erickson, and Carol Gilligan). The article also discusses the difficulties and effective approaches that arise when applying socio-moral development in pedagogical practice. As a result, the focus on moral education and socio-moral competencies in the educational system plays an important role in ensuring the spiritual and moral development of the individual.

Key words and concepts: ethics, socio-moral development, pedagogical and psychological literature, moral development, cognitive development, emotional development, social moral competence, educational process, personal moral responsibility.

Kirish.

Yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish yo'lga qo'yish, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar, insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarning safarbar etilishi, o'quvchi-yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari"¹ tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim.

Ijtimoiy-axloqiy rivojlanish - insonning jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, qadriyatlari va xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab jarayon. Ushbu jarayon shaxsiy tajribalar, tarbiya, oila va jamiyatning ta'sirida rivojlanadi. Bugungi globalashuv va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan ijtimoiy-axloqiy tushunchalar va ularning talqinlari ham o'zgarib bormoqda. Shu sababli, yosh avlodning axloqiy rivojlanish jarayonini pedagogik va psixologik nuqtai nazardan chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda.

Ijtimoiy-axloqiy rivojlanishni o'rganishda zamonaviy pedagogik va psixologik adabiyotlar asosiy rol o'ynaydi. Mazkur tadqiqotlarni

ing asosiy maqsadi shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarini uyg'un shakllantirish, shuningdek, jamiyat a'zolarini axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashdan iborat. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va sog'lom ma'naviyatli jamiyat yaratishga ko'maklashadi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur maqolada ijtimoiy-axloqiy tushunchasining zamonaviy talqini, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va yoshlarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar keng yoritiladi. Shu bilan birga, ushbu tushuncha pedagogik va psixologik adabiyotlarda qanday talqin qilinayotgani va uning rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Ijtimoiy axloq — bu jamiyatda yashovchi odamlarning bir-biriga, o'zaro munosabatlariga va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini belgilovchi axloqiy normalar, qadriyatlar va me'yorlardir. Ijtimoiy axloq jamiyatda yashashni tartibga soluvchi, odamlarga o'zaro hurmat, yordam, adolat va tenglik kabi fazilatlarini o'rgatadigan tizim sifatida qaraladi. Bu tushuncha ijtimoiy muhitda axloqiy qarorlar qabul qilish, odobli xulq-atvorni shakllantirish va jamiyatning barqarorligini saqlash uchun muhimdir. Ijtimoiy-axloqiy tushunchaning zamonaviy talqini, asosan, jamiyatning o'zgaruvchan talab va qadriyatlariga mos ravishda shakllanadi. Bugungi kunda bu tushuncha nafaqat an'anaviy axloqiy me'yorlar, balki jamiyatdagi turli ijtimoiy va madaniy jarayonlar, globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va yangi hayot tarzining o'zgarishlarini ham hisobga oladi. Ijtimoiy-axloqiy tushuncha ta'lim jarayonida juda muhim ahamiyatga ega, chunki u nafaqat bilimlarni, balki axloqiy qadriyatlarini

¹ "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2020-y

1-rasm. Yoshlarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.



ham shakllantiradi. Ta'limda ijtimoiy-axloqiy tushunchalar yoshlarning o'zaro munosabatlari, jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini, adolatni, hamjihatlikni, tenglikni va hurmatni o'rganishlariga yordam beradi.

Yoshlarning axloqiy rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ijtimoiy, madaniy, psixologik va ta'lim jarayonlariga bog'liq bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin (1-rasm):

Oilaviy tarbiya muhiti. Oila yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oila a'zolarining xulq-atvori, qadriyatlar va o'zaro munosabatlari yoshlarni axloqiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Oiladagi sevgi, hurmat, adolat va o'zaro yordam kabi qadriyatlar axloqiy tarbiyani shakllantiradi.

Ta'lim muassasalari. Maktablar, universitetlar va boshqa ta'lim muassasalari ijtimoiy-axloqiy tushunchalarni o'rgatishda muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar va pedagoglarning o'quvchilarga bo'lgan munosabati, axloqiy ta'limning mazmuni va shakli yoshlarning axloqiy rivojlanishiga katta ta'sir qiladi.

Do'stlar va tengdoshlarga ta'sir. Yoshlar o'z tengdoshlaridan o'rnak olishadi. Ularning o'zaro munosabatlari, guruh ichidagi ijtimoiy axloq va normativlar yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantiradi. Ijtimoiy muhit, do'stlar va jamiyat-

dagi o'zaro munosabatlar axloqiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat va ijtimoiy muhit: Jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy, diniy va madaniy qadriyatlar yoshlarning axloqiy qarashlariga ta'sir ko'rsatadi. Madaniy o'zgarishlar, ijtimoiy normativlar, global axloqiy masalalar ham yoshlarning axloqiy qarashlarini shakllantiradi.

O'z-o'zini anglash va shaxsiy tajriba. Yoshlar o'zlari duch kelgan tajribalari, muvaffaqiyatlar va xatoliklar orqali axloqiy qarashlarni shakllantiradilar. O'z-o'zini anglash va shaxsiy tajriba ham axloqiy rivojlanish uchun muhimdir, chunki bu yoshlarni o'z harakatlariga mas'uliyatli yondashishga undaydi.

Texnologik va raqamli muhit: Zamonaviy yoshlar uchun internet va raqamli texnologiyalar o'zaro munosabatlar va axloqiy me'yorlarga ta'sir qiladi. Onlayn platformalarda qanday xulq-atvorni ko'rsatish, axloqiy normativlarni hurmat qilish, raqamli dunyoda axloqiy mas'uliyatni anglash yoshlarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, yoshlarning axloqiy rivojlanishiga bir nechta omillar ta'sir qiladi, va bu omillarni jamiyat, oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitdagi qadriyatlar asosida tartibga solish orqali yoshlarni mas'uliyatli, adolatli va ijtimoiy jihatdan faol fuqarolar bo'lishga tayyorlash mumkin.

Pedagogik adabiyotda ijtimoiy-axloqiy tushuncha odatda tarbiyaviy jarayonlar va ijtimoiy hayotga integratsiya qilishning asosi sifatida ko'rib chiqiladi. Zero, yoshlarning axloqiy qadriyatlar, me'yorlar va jamiyatda o'zaro munosabatlar asosida xulq-atvorini shakllantirish, shaxsiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy hayotga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan muhim pedagogik tushunchadir. Ijtimoiy-axloqiy tushuncha pedagogikada yoshlarni tarbiyalash va ularda ijtimoiy mas'uliyatni, axloqiy ongini, o'zaro hurmatni va boshqalar bilan adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan.

Psixologik adabiyotda ijtimoiy-axloqiy tushuncha, asosan, shaxsning shaxsiy rivojlanishi va uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri orqali yoritiladi. Psixologlar ijtimoiy-axloqiy tushunchaning yoshlarning shaxsiy o'sishiga, ijtimoiy moslashuviga va axloqiy qarorlar qabul qilishiga qanday ta'sir qilishini o'rganadilar. Psixologiyada axloqiy rivojlanishning turli bosqichlari o'rganiladi. Jean Piaget va Lawrence Kohlberg kabi psixologlar axloqiy rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqqan. Piaget axloqiy qarorlar va qadriyatlar rivojlanishining ikki bosqichini ta'kidlagan: bolaning axloqiy qarorlarni o'zgaralar nuqtai nazaridan tushunishiga qarab rivojlanadi. Kohlberg esa, axloqiy rivojlanishni olti bosqichga bo'lib, yoshlar qanday qilib ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishlarini tushuntirgan.

Ijtimoiy-axloqiy rivojlanishning nazariy asoslari axloqiy xulq-atvorni shakllantirish jarayonini tushuntiruvchi psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar shaxsiyatning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy fazilatlarining rivojlanishini o'rganadi. Bunday tushunchalarning asosiy nazariy manbalari sifatida psixologik rivojlanish nazariyalari, axloqiy rivojlanish nazariyalari va sotsiokultural yondashuvlar alohida ajratiladi.

Psixologik rivojlanish nazariyasi yo'nalishida Jean Piaget va Erik Erikson singari psixologlarning asarlari muhim o'rin tutadi. Piaget'ning kognitiv rivojlanish nazariyasida inson o'ziga va jamiyatga nisbatan munosabatni kognitiv jarayonlar orqali o'rgana boshlaydi. Uning ta'kidlashicha, bolalar axloqiy qoidalarni ijtimoiy o'zaro munosabatlar orqali angelaydi. Erikson "Childhood and Society" asarida inson rivojlan-

ishining turli bosqichlarida yuzaga keladigan ijtimoiy-axloqiy qiyinchiliklarni o'rganadi. Har bir bosqichda individning axloqiy rivojlanishi unga yuklatilgan ijtimoiy mas'uliyatga mos ravishda shakllanadi².

Lawrence Kohlberg va Carol Gilligan axloqiy rivojlanish nazariyasi sohadagi yetakchi olimlardan hisoblanadi. Kohlberg³ning axloqiy rivojlanish nazariyasi axloqiy qaror qabul qilishning turli bosqichlarini tavsiflaydi. Uning nazariyasida shaxs axloqiy masalalarni hal etish jarayonida bosqichma-bosqich yuqori axloqiy tamoyillarni angelaydi. Gilligan⁴ esa axloqiy rivojlanishda jinsiy farqlarni inobatga oladi va erkaklar hamda ayollarning axloqiy qarashlari qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanini o'rganadi.

Lev Vygotskiy⁵ning sotsiokultural nazariyasi axloqiy tushunchalar va qoidalarning ijtimoiy muhitda shakllanishini ta'kidlaydi. Vygotskiy fikricha, ijtimoiy va madaniy ta'sirlar axloqiy tushunchalarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'quvchilarning ijtimoiy-axloqiy rivojlanishi ularning oila, maktab va jamiyatdagi munosabatlariga bog'liqdir. Shuningdek, ijtimoiy-axloqiy qoidalarning o'zlashtirilishida ustozlar, tengdoshlar va oila a'zolarining roli ham katta ahamiyat kasb etadi.

Sharq pedagogikasi va o'zbek psixologiyasi tarixan insonni kamolotga yetkazish va uning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga katta e'tibor qaratgan. Sharqning buyuk mutafakkirlari, olimlari va ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan asarlar ijtimoiy-axloqiy tarbiya masalalarini yoritish va bu borada muhim yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan. Sharqlik mutafakkirlar ham o'z asarlarida insonning ma'naviy va axloqiy jihatdan komillikka intilishi, uning jamiyatda o'z o'rnini topishi va boshqalar bilan uyg'un munosabatda bo'lishi zarurligini ta'kidlab kelganlar.

Sharq pedagogikasida axloqiy tarbiya asoslari Islom dinining ta'limotlari, hadislari va shar'iy me'yorlari orqali shakllangan. Islomiy tarbiya modeli o'zida insonning mehr-oqibat, sabr-qanoat, halollik va adolat kabi sifatlarini rivo-

² Erik Erikson. "Childhood and Society" (1950)

³ Lawrence Kohlberg. «The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice» (1981)

⁴ Carol Gilligan «In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development» (1982)

⁵ Lev Vygotskiy «Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes» (1978)

¹ Jean Piaget. «The Psychology of the Child» (1969)

jlantirishga qaratilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlari bu borada chuqur ma'noli fikrlarni o'z ichiga oladi. Ularning asarlarida jamiyat uchun zarur bo'lgan insoniylik, odob-axloq, halollik va poklik kabi axloqiy tamoyillar asosiy o'rinda turadi. Masalan, Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ijtimoiy birlik va axloqiy fazilatlarining jamiyatdagi ahamiyatini yoritib bergan.

Farobiyning fikricha, "fozil jamiyatda yashaydigan shaxslar ruhiy va axloqiy jihatdan pok bo'lishi lozim. Inson o'z nafsini jilovlay bilishi, aql va irodani ustuvor qo'yishi kerak. U insonning komillikka erishishi uchun bilim olish va aqlni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ruhiy va axloqiy poklik, Forobiy nazarida, jamiyatdagi uyg'unlik va barqarorlikning asosidir"¹.

Ibn Sinoning fikriga ko'ra, axloq inson tabiatining bir qismidir va uni tarbiya va ta'lim orqali rivojlantirish mumkin. U insonni axloqiy yetuklikka erishishi uchun ongli faoliyat olib borishga undaydi. "Ishoratlar va tanbehlar"da axloqiy tamoyillar insonning ma'naviy rivojlanishi va jamiyat barqarorligidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, adolat inson va jamiyatni birlashtiruvchi eng muhim axloqiy tamoyildir. U adolatni nafaqat huquqiy tushuncha, balki insonning ichki ma'naviy holati sifatida ham ko'radi².

Rumiyning ijtimoiy axloq haqidagi qarashlari tasavvuf falsafasiga asoslangan bo'lib, insonning ma'naviy poklanishi va jamiyatdagi munosabatlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan. Rumiyning fikriga ko'ra, ijtimoiy axloq inson va jamiyatni birlashtiruvchi ruhiy va axloqiy tamoyillar yig'indisidir. Inson faqat o'z nafsini ustidan g'alaba qozonib, o'zini poklagan holda ijtimoiy axloqqa hissa qo'sha oladi. Rumi axloqning markaziy tamoyili sifatida muhabbatni ta'kidlaydi. U muhabbatni nafaqat shaxsiy his-tuyg'u, balki inson va jamiyatni birlashtiruvchi kuch deb hisoblagan. U shunday deb yozadi: "Muhabbat har qanday dardni shifo qiladi va insonni inson qiladi".

¹ Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" Nodir va dono fikrlar. — T.: "O'zbekiston

"milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 160 b.

² Abu Ali Ibn Sino. "Al-ishorat va at-tanbihot", — B 294

Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asarida ijtimoiy axloqning nazariy va amaliy jihatlari tasvirlangan. Asardagi hikoyatlar va rivoyatlar orqali u quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

- Axloqiy yetuklik nafaqat insonning shaxsiy hayoti, balki uning jamiyatdagi o'rni uchun ham muhimdir.

- Jamiyatni rivojlantirish uchun har bir inson o'z fazilatlarini rivojlantirishi va boshqalarga namuna bo'lishi lozim³.

Navoiy ijtimoiy-axloqni shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi, insonlarning o'zaro hurmat va birdamlikka asoslangan hayot tarzining ajralmas qismi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, axloqiy yetuklik insonning shaxsiy rivojlanishi bilan birga jamiyatni ham taraqqiyot sari yetaklaydi. Ijtimoiy axloqning poydevori adolat, samimiyat va o'zaro yordamga asoslanadi.

Alisher Navoiy asarlarida adolat eng yuqori ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatida talqin etiladi. Buni esa biz uning U "Mahbub ul-Qulub" asarida keltirilgan "Adolat dunyo tuzilishining asosidir"⁴ ushbu misoldan ham anglashimiz mumkin.

Alisher Navoiyning ta'kidlashicha insonparvarlik va mehr-muhabbat axloqning asosiy tamoyillaridan biri. U odamlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar va o'zaro hurmatni jamiyat taraqqiyotining garovi deb bilgan. Bu tamoyil o'z navbatida bironing dardiga hamdardlik qilish, kam ta'minlanganlarga yordam berish va ularga mehr ko'rsatish, nafs va shaxsiy manfaatlardan voz kechib, jamiyat manfaatlarini ustun qo'yish kabi jihatlarni qamrab oladi. Navoiy "Farhod va Shirin" va "Layli va Majnun" kabi asarlarida sevgi va insoniy munosabatlar orqali axloqiy idealni namoyon etadi.

O'zbek psixologiyasida ham ijtimoiy-axloqiy tarbiya mavzusi muhim o'rin tutadi. Milliy psixologiyamizda insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'llari, uning axloqiy mezonlari haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. O'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini ham yoshlarni axloqiy tarbiya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Milliy psixologiya olimlari bu borada o'z tadqiqotlarida

³ Jaloliddin Rumi "Ma'naviy masnaviy" Sharq Nashriyoti. T: 1999 y

⁴ Alisher Navoiy «Mahbub ul-Qulub» Yoshlar nashriyot uyi. T: 2018 y

inson ma'naviyatini shakllantirish, uning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini o'rganib, yoshlar tarbiyasida ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berganlar. Jumladan, Bazarov Otabek Xasanboevich tomonidan ijtimoiy falsafa fani doirasida "Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari" mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Tadqiqotchi tomonidan olib borilgan tadqiqot ishi davomida ma'naviy-axloqiy ong tushunchasi va uning namoyon bo'lishi, ma'naviy-axloqiy ongning tarixiy taraqqiyoti va evolutsiyasi, globallashuv jarayonining talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongiga ta'siri, talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishning samarali metodlari va vositalari, talabalarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda an'anaviylik va zamonaviylik dialektikasi, O'zbekistonda talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirish strategiyasi: muammolar va yechimlar borasida nazariy va amaliy ma'lumotlar berib o'tgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi haqida gapiradigan bo'lsak, globallashuvning talaba-yoshlar dunyoqarashiga ta'sirining ortib borishi jarayonida ma'naviy-axloqiy ongning hayotiy ehtiyojga aylanishi ya'ni milliy ma'naviyat, milliy g'oya kabi omillarning zaruratini ilmiy asoslash hamda talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirishning samarali yo'llari va vositalarini aniqlash, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi¹.

Hozirgi davrda ham Sharq pedagogikasi va o'zbek psixologiyasining ijtimoiy-axloqiy tarbiyaga oid an'anaviy tamoyillari dolzarb hisoblanadi. Bu an'analarda asosida o'quvchilarni tarbiyalash, ularga axloqiy va ijtimoiy fazilatlarini singdirish orqali sog'lom va barqaror jamiyatni shakllantirish mumkin. Shu tariqa, Sharq pedagogikasi va o'zbek psixologiyasining asarlari yoshlarni ijtimoiy-axloqiy jihatdan kamolotga yetkazishdagi muhim manbalardan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar fikrlash hamda his-tuyg'ularini boshqarish (kognitiv-emotsional) ni rivojlantirish va ijtimoiy-axloqiy qoidalarning shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Xususan, Daniel Golemanning "Emot-

sional intellekt" (inglizcha: *Emotional Intelligence*) asarida emotsional intellekt (EI) kontseptsiyasini ommalashtirgan va insonlarning emotsional qobiliyatlarini tanqidiy tahlil qilgan birinchi mashhur asarlardan biridir. Goleman o'z asarida emotsional intellektning hayotdagi muvaffaqiyatlar, professional faoliyat va shaxsiy aloqalar bilan qanday bog'liqligini o'rganadi². Kognitiv-emotsional yondashuvlar axloqiy qarorlar va ijtimoiy moslashuv insonning hissiy jihatlariga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bolalar va yoshlarning ijtimoiy muammolarni tushunish va ularga javob berish usullari ulardagi emotsional rivojlanish va o'ziga bo'lgan ishonch darajasi bilan uzviy bog'liq.

Bugungi kunda ijtimoiy-axloqiy qoidalar va ularga bo'lgan yondashuvlar global axborot almashinuvi va raqamli texnologiyalar orqali shakllanmoqda. Yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy-axloqiy qoidalar va axloqiy qoidalarga bo'lgan munosabat raqamli madaniyat va onlayn ijtimoiy tarmoqlarda ham rivojlanmoqda. Bu boradagi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global tarmoqlardagi ma'lumotlar va interaktiv muhit yoshlarning axloqiy qarashlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy-axloqiy rivojlanish ta'lim jarayonida yangi texnologiyalar, madaniyatlararo aloqalar va psixologiyaning yangi yo'nalishlariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar yoshlarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda o'qituvchilarga yordam beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar insonning axloqiy rivojlanishi va qaror qabul qilish jarayonida his-tuyg'ularning muhim o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Kognitiv-emotsional yondashuvlar shaxsning axloqiy qarorlarni qanday qabul qilishini, ya'ni muammolarni tushunish va unga emotsional munosabat bilan qanday ishlashini o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuv o'qituvchilarni yoshlar o'rtasida sog'lom hissiy muhit yaratishga undaydi, chunki bu jarayon axloqiy rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi.

Globalashuv jarayonida turli madaniyat va qadriyatlar o'rtasida hamkorlik qilish va bir-birini tushunish qobiliyati juda muhim bo'lib qoldi. Madaniyatlararo yondashuv axloqiy tar-

¹ Nazarov Otabek Xasanboevich «Talaba-yoshlar ma'naviy axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari» PhD Diss. Toshkent-2019. 165 bet

² Daniel Golemanning. "Emotsional intellekt". (Emotional Intelligence) Bantam Books nashriyoti. 1995-yil 350-400 bet.

biyada turli millat va madaniyatlarning ahamiyatini inobatga olib, o'quvchilarga bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni o'rganishga yordam beradi. Bu yondashuv yoshlarni dunyoqarashi keng fikrlovchi, tolerant shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning axloqiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va internet orqali axloqiy qadriyatlarni o'rgatish yondashuvi hozir kunda dolzarbdir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi axloqiy muammolar va kiberbulling (bu raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan zo'ravonlik yoki tazyiqning bir shakli) bilan kurashish, yoshlarning raqamli xulq-atvorini nazorat qilish masalalari raqamli madaniyatni shakllantirishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ya'ni o'quvchilarning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish, empatiyani rivojlantirish, samarali muloqot qilish, o'zaro munosabatlarni yaxshilash kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlari o'quvchilarda axloqiy tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi va ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratishga katta hissa qo'shadi.

Ijtimoiy-axloqiy rivojlanishda kreativ va ijodiy yondashuv axloqiy muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlash va o'zgacha yondashuvlarni qo'llashni rag'batlantiradi. Bu yondashuv o'quvchilarga axloqiy masalalarni ijodiy tarzda o'rganish va o'z nuqtai nazarini rivojlantirishga yordam beradi. Jumladan, drama, ro'yxatdagi rollarni ijro etish, hikoyalar yozish kabi faoliyatlardan orqali o'quvchilar ijtimoiy-axloqiy tushunchalarni chuqurroq o'rganadilar.

Xulosa.

Ijtimoiy-axloq tushunchasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda inson shaxsining rivojlanishida muhim omil sifatida qaraladi. Zamonaviy yondashuvlar bu tushunchaning murakkabligi va ko'p qirraliligini ta'kidlaydi. Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari axloqiy rivojlanish insonning kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirishini ko'rsatmoqda.

Nazariy jihatdan, Piaget, Kohlberg, Erikson kabi klassik olimlar axloqiy rivojlanishning asosiy bosqichlari va tamoyillarini belgilab bergan

bo'lsa, zamonaviy tadqiqotchilar bu tamoyillarni yangi kontekstlarda kengaytirib, ijtimoiy va madaniy ta'sir omillarini ham hisobga olgan holda rivojlantirgan. Masalan, Carol Gilligan jinsiy tafovutlar asosida axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonlarini o'rgangan bo'lsa, SEL kabi dasturlar hissiy va ijtimoiy o'quv kompetensiyalarini rivojlantirishga urg'u bermoqda.

Tadqiqot ishimizdan olingan xulosalardan quyidagilarni aytib o'tmoqchimiz:

1. Ijtimoiy-axloqiy rivojlanishni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish orqali nafaqat alohida shaxsning, balki butun jamiyatning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotiga erishishi mumkin.

2. Barqaror rivojlanish va global mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashning muhim asosini hisobga olish lozim.

3. Ijtimoiy-axloqiy rivojlanishda ijtimoiy-madaniy ta'sir omillari bevosita ijtimoiy axloq kompetensiyalarini rivojlantiradi.

4. Kognitiv-emotsional yondashuvlar axloqiy qarorlar va ijtimoiy moslashuv insonning hissiy jihatlariga bog'liqligini ko'rsatib beradi.

5. O'quvchilar va talaba-yoshlarning ijtimoiy muammolarni tushunish va ularga javob berish usullari ulardagi emotsional rivojlanish va o'ziga bo'lgan ishonch darajasi bilan uzviy bog'langan.

Shuningdek, quyidagi bir necha takliflarni berib keltiramiz:

1. Ijtimoiy axloqning asosiy komponentlarini aniqlab ularni talabalarda shakllantirish zarur.

2. Talabalar o'rtasida ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ta'sirini baholash kerak.

3. Talabalar ijtimoiy axloqni shakllantirishda psixologik yondashuvlarning, xususan, empatiya, o'zini o'zi anglash va jamiyatga moslashishning rolini oshirish lozim.

4. Yoshlar o'rtasida axloqiy qiymatlar va mas'uliyatni oshirishda zamonaviy pedagogik va psixologik metodlarning samaradorligini o'rganish darkor.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va talabalarni ijtimoiy mas'uliyatli qilish uchun samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori. - <https://lex.uz/docs/-4676839>
2. Jean Piaget. *The Psychology of the Child* (1969).
3. Erik Erikson. *Childhood and Society* (1950).
4. Lawrence Kohlberg. *The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice* (1981).
5. Carol Gilligan. *In a Different Voice: Psychological Theory and Women's Development* (1982).
6. Lev Vygotskiy. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes»* (1978)
7. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 160 b.
8. Abu Ali Ibn Sino. *Al-ishorat va at-tanbihot*. – B. 294.
9. Jaloliddin Rumiy. *Ma'naviy masnaviy*. - T: Sharq Nashriyoti. 1999.
10. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-Qulub*. - T: Yoshlar nashriyot uyi. 2018.
11. Nazarov Otabek Xasanboevich. *Talaba-yoshlar ma'naviy axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari*. PhD diss. – Toshkent: 2019. 165 bet.
12. Daniel Golemanning "Emotsional intellect". (Emotional Intelligence) Bantam Books nashriyoti. 1995-yil 350-400 bet.